

INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA INNOVATSION MULTIMEDIA TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

Sevara Mirsidikova

O'zbekiston davlat konservatoriysi magistranti

sevaramirsidikova98@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada nogironligi bo'lgan talabalar musiqa ta'limida duch kelayotgan muammolar tahlil qilingan. Shuningdek, inkluziv ta'lif sgaroitida innovatsion multimedia texnologiyalarining ahamiyati va shu asosda yaratilgan o'quv qo'llanmalarining xususiyatlari keltirib o'tilgan. Musiqa ta'limi sohasida Nogironligi bo'lgan talabalarning musiqa ta'limida duch kelayotgan muammolarni hal etishda innovatsion multimedia o'quv qo'llanmalarini keng joriy etish va o'quv jarayonlari sifatini oshirishi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Brayl alifbosi, Brayl nota tizimi, inkluziv ta'lif, musiqa ta'limi, multimedia, musiqiy adabiyot.

ABSTRACT

This article analyzes the problems faced by students with disabilities in the field of music education. In addition, the importance of innovative multimedia technologies and the characteristics of teaching aids created on their basis in the field of inclusive education are mentioned. The wide introduction of innovative multimedia teaching aids and the improvement of the quality of educational processes in solving the problems faced by students with disabilities in the field of music education are substantiated.

Keywords: Braille alphabet, Braille notation system, inclusive education, music education, multimedia, musical literature.

KIRISH

Ma'lumki, musiqashunoslik quyidagi bilim sohalarini qamrab oladi: musiqa nazariyasi, musiqa tarixi, musiqiy etnografiya, musiqiy tanqid, musiqiy akustika, musiqiy psixologiya va boshqalar. Musiqa nazariyasi ilmiy va o'quv fanlarning poydevori bo'lib, «Musiqaning elementar nazariyasi», «Garmoniya», «Musiqiy shakl», «Polifoniya», «Solfedjio», «Cholg'ulashtirish» kabi fanlarni o'z ichiga oladi va musiqani nazariy jihatdan o'rghanadi. Mazkur fanlarning umumiyl vazifasi – musiqani idrok etish, uni tushunish,

uning tabiat, imkoniyatlari va tinglovchilarga ta'sir qilish mexanizmini anglashga yordam berishdir. Ushbu fanlar bo'lajak musiqa o'qituvchilarini tayyorlashda ham muhim rol o'ynaydi. Ular musiqa sirlarini nafaqat o'z ehtiyojlari uchun, balki kerakli bilim va ko'nikmalarini kelajakdagi o'quvchilar ongiga singdirish uchun o'zlashtirishi zarur.

Multimedia o'quv qo'llanma yaratishning asosiy maqsadi mazkur fandan yangi avlod adabiyotni yaratish va bu fanning o'zlashtirilishini ta'minlashdan iborat. Bunday o'quv ko'llanmalari o'quvchining barcha talab-ehtiyojlarini qoniqtirishi, ilg'or pedagogik texnologiyalar talablari asosida "avval o'qish, so'ngra bu o'qishga o'rgatish uchun o'qish" tamoyiliga asoslanish, talabaning o'quv materialini o'zlashtirishdagi darajalari, nazariy va amaliy bilimlarni egallashda soddadannurakkabga qoidasiga asoslangan nazorat topshiriqlarini belgilash, o'quvchilarga individual holda yondashish kabi xususiyatlarni xisobga olish lozim. Multimedia o'quv qo'llanma yaratishning jarayonda fanlarni o'qitish konsepsiyanlarini yaratish hamda fanlarning mazmunini qanday izoxlashdan iborat bir-biri bilan bog'liq bo'lgan ikki muammoning yechimini topish kerak bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Har qanday fan yoki maxsus kursni o'zlashtirishning muvaffaqiyati va sifati muayyan o'quv-uslubiy materiallarning mavjudligiga bog'liqdir. Afsuski, ko'rish imkoniyati cheklangan talabalar tomonidan foydalaniladigan Brayl relyef-nuqtali shriftida bunday materiallar hanuzgacha mavjud emas. Bundan tashqari, umumiy nota tizimidan prinsipial farqlarga ega bo'lgan Brayl nota tizimini o'zlashtirishda ham o'ziga xos qiyinchiliklar bor.

Multimedia vositalarini o'quv jarayonining nazariy va amaliy mashg'ulotlarini tashkil etishda qo'llash yangi shakl va metodlarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Bizga ma'lumki, o'quv muassasalarining ish rejasida talabalarning mustaqil ishslashlari uchun auditoriya darslaridan kam bo'limgan miqdorda soat ajratiladi. Ushbu mustaqil ishslash uchun ajratilgan soatlardan qanday unumli foydalanish va uni qaysi shakl, usullar bilan tashkil qilish lozim? - degan o'rinni savollar paydo bo'ladi. Bu savolga javob topish uchun o'quv jarayonini doimiy ravishda takomillashtirib borish talab etiladi. Bizning nazarimizda, o'quvchi-talabalarning mustaqil ishslash soatlarini musiqiy kompyuter texnologiyalaridan foydalangan xolda tashkil etish katta samara beradi. Bu masalaning yechimini topishda, yuqorida ta'kidlaganimizdek o'quv materiallarini multimedia texnologiya qo'l keladi. Agarda o'quv materiallari multimedia vositalari asosida tashkil etilgan bo'lsa, bunda talabalarning mustaqil ishslash jarayonida

o'zlashtirish ko'rsatkichi yanada yuqori bo'ladi. Dars jarayonida maxsus diskda berilgan o'quv-materiallardan o'quvchilarga beriladigan nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lab borish, bunda muammoli nazariyalarni vujudga keltirish, qo'yilgan muammoli o'quvchilar bilan birgalikda yechish, ularda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi, o'tilgan mavzu mohiyatini tushunib olishlariga yordam beradi. Ushbu muammoli o'qitish va o'quvchilarning mustaqil ishlashini tashkil qilish uchun axborot-pedagogik texnologiyalarga asoslangan multimediali o'quv qo'llanmalarning yaratilishi ayni muddaodir.

Shunday qilib, ko'rish imkoniyati cheklangan talabalar tomonidan garmoniya kursini o'zlashtirish metodikasi qo'yidagi tamoyillariga asoslanadi:

- Brayl nota tizimining xalqaro standartlari asosida bosqichma-bosqich va tizimli ravishda nazariya va amaliyotini o'rganish;
- Garmoniya kursning xar bir tushuncha, sekvensiya, vazifalarlarni tahlil qilib amaliyotda qo'llash;
- Garmoniya kursning masalalarni bajarishning yuqorida tavsiflangan variantlar asosida o'rganilgan materialni bir nechta martalab mustahkamlash.

Ko'zi ojiz va zaif talabarga mo'jallangan musiqiy adabiyot yaratishda quyidagi muammolarni aytish mumkin:

- Birinchidan, ko'rish imkoniyati cheklangan talabalar musiqiy o'quv-uslubiy materiallar mavjud emasligini.
- Ikkinchidan, Brayl shriftiga va Brayl nota tizimi asosida o'quv musiqiy adabiyot ishlab chiqish – juda murakkab jarayon bo'lib, mualliflardan Xalqaro Brayl nota tizimi standart va tamoyilar bo'yicha yukori bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishni talab qiladi.
- Uchinchidan, ko'rish imkoniyati cheklangan talabarga mujallangan musiqiy adabiyot zamonaviy innovatsion kompyuter texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan bo'lish kerak. Demak, mualliflarda kompyuter texnologiyalari bo'yicha yaxshi ko'nikmalar hamda maxsus komputer ta'minoti bo'yicha yuqori bilimga ega bo'lishni talab qilinadi.

NATIJA

Ko'zi ojiz talabalar tomonidan ushbu murakkab qoidalarni sifatlari o'zlashtirish uchun biz O'zbekistonda ilk bora V. Dubovskiyning Garmoniya kursi bo'yicha darslikni o'zbek tilida hamda Brayl nota tizimi asosida ishlab chiqardik. Bundan tashqari biz, ushbu darslikga innovatsion yondashuv yordamida maxsus diskni tayyorladik. Mazkur disk Garmoniya kursi darslikning barcha misollar, mashqlar, vazifalar audio formatda

keltirilgan bo'lib, talaba va o'quvchilar uchun eshitishga yordam beradi. Garmoniya bo'yicha ba'zi masalalarni Brayl nota tizimi asosida yozish qiyindir. Murakkab vazifalar, aynan musiqiy asarlarning tahlil qilish uchun keltirilgan ayrim lavxalar va misollar talaba va o'quvchilar uchun o'qishda muammo keltirish mumkin. Shuning uchun biz ushbu lavhalarni diskka audio formatda kiritdik. Barcha o'quv materiallarni audio formatda mavjudligi tufayli, talabalar yoki o'quvchilar o'z eshitish madaniyatini keng rivojlantirishadi. Bundan tashqari esa, ular musiqiy idrok va tasavvur orqali asarning lavhalarni his etib eshitish yordamida tahlil qilishlari mumkin.

Ko'zi ojiz talabalar uchun «Garmoniya» fani bo'yicha ovozli studiya mutaxassilari hamkorlikda har bir mavzuga oid misollar va mashq uchun maxsus multimedia ilova, ya'ni maxsus ikkita disk yaratildi. Maxsus disklar - talabalarning nazariy bilimlarini mustaxkamlashga qaratilgan V.Dubovskiy tomonidan yozilgan «Garmoniya kursi» darslikda keltirilgan barcha mashq va misollar musiqiy to'plamidir. Multimedia texnologiya asosida ishlab chiqilgan o'quv qo'llanmasining yaratilishi natijasida ko'zi ojiz talabalar fan bo'yicha barcha vazifalarni mustaqqil ravishda bajarish imkoniyatini beradi. Bu texnologiya ko'zi ojiz talabalarni uchun inklyuziv ta'limga sifatini oshiradi va o'quv jarayonining samaradorligiga erishishni ta'minlaydi. Mazkur ovozli multimedia disk yordamida talabalar o'zlari uchun qulay va zarur vaqtarda mashq va vazifalarni eshitish, takror bajarishi, muxokama qilishi kabi imkoniyatlarga ega bo'ladi. Bu esa ularning o'zlashtirish sifat ko'rsatkichini oshirishga olib keladi. Yana muxim tomonlaridan biri - bu o'qitish samaradorligini oshirishda o'quvchi-talabalarning mustaqil ishslashga bo'lgan nazariy, amaliy va psixologik tayyorgarliklari muxim rol o'ynaydi.

Bu o'quv qo'llanmada barcha masalalar, kuylar Brayl nota tizimida yaratilgan. Ya'ni ushbu qo'llanmamizda garmoniyaga oid hamda Brayl nota tizimini o'zlashtirish bilan bog'liq uslubiy eslatmalar mavjud. Bu eslatmalar, albatta ko'zi ojiz talabalarga Garmoniya fanini professional darajada o'zlashtirish, kursi bo'yicha masalalarni yechish va tahlil qilish uchun juda katta ko'mak beradi. Bundan tashqari, biz qo'llanmamizda innovatsion yondashuv yordamida maxsus ikkita mediadisk tayyorladik. Shu disklar yordamida talabalar berilgan vazifalarni audioformatda eshitishlari lozim. Bundan tashqari, maxsus disklar talabalarga eshitish qobiliyatini rivojlantirish uchun alohida yordam beradi. Ya'ni, ba'zi murakkab misollarni Brayl nota tizimida yozish hamda talabalarga o'qish nihoyatda qiyin bo'ladi. Shu tufayli biz murakkab misollarni maxsus diskka kiritganmiz. Aloida ta'kidlash joizki, «Garmoniya» o'quv qo'llanmamizda Brayl nota tizimini o'zlashtirish bo'yicha tavsiyalar mavjud. Bu tavsiyalar

talabalarga Garmoniya fanini professional tarzda o'rganishga juda katta yordam beradi.

XULOSA

Demak, ko'zi ojiz talabalarining professional musiqaviy oliy ta'lif olish imkoniyatlarini kengaytirish va ta'lif olish sifatini oshirish uchun o'quv-uslubiy adabiyotlarni tayyorlash zarurdir. Shu boisdan biz 2017 yildan boshlab kuzi ojiz talabalar uchun brayl nota tizimiga asoslangan o'quv qullanmalarni yaratishni boshladik. Natijasida yetta qo'llanma yaratdik. Barcha o'quv qo'llanmalarimiz xalqaro Brayl nota tizimining tamoyillari asosida yozilgan bo'lib, undan tashqari biz qo'llanmalarimizga innovatsion yondashuvlarni kiritdik. «Maqom ritmlari» va «Maqom solfedjiosi» o'quv qo'llanmalarida ko'zi ojiz talabalar uchun professional musiqiy ta'lif olishga imkoniyatini kengaytirish va bilim olish sifatini oshirish uchun innovatsion texnologiya va yondashuvlar jalb etilgan. Masalan, «Maqom ritmlari» notada yozilgan bo'lib, har bir maqom usulida ko'rsatilgan **QR-kod** yordamida talaba berilgan maqom usullarini audio formatda eshitish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

REFERENCES

1. Tabolskaya O.A., Yakovleva I.V. Tyutorstvo v usloviyah razvitiya inklyuzivnogo obrazovaniya. – Moskva–Berlin, 2019, 10 b.
2. D.S. To'xtasinova, V.S. Xamidov. Elektron o'quv adabiyotlarini yaratish va rasmiylashtirish. Toshkent, 2017, 5b.
3. Tay Vaughan, Multimedia: Making It Work, 8th Edition, 2011, p.481 (xiv).
4. Alekseyeva T.P. Psixologo-pedagogicheskaya reabilitasiya detey s narusheniyami zreniya sredstvami muzyskalnogo tvorchestva v nachalnyy period obucheniya / T.P. Alekseyeva // Fond dobrnykh sobystiy : iz opyta raboty Lipeskoy oblastnoy spesialnoy korreksionnoy obshcheobrazovatelnoy shkoly III-IV vida dlya detey s narusheniyami zreniya. — Lipesk, 2003. — S.220-231. — Bibliogr.: s.230- 231.